



# Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan

Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 26-dekabr, payshanba,

147 (24.024)-son

O'zbek xalq  
maqoliBadqavm  
bo'lsang, bo'l,  
beqavm  
bo'lma.

## ↓ Prezident farmoniga ko'ra Hokimliklarga **YANGI VAKOLATLAR** beriladi

Prezidentning "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'liga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Hujatga muvofiq, mahalliy hokimliklar mas'uliyati va hisobdorligini oshirish hamda ularning tashabbuskorligi, islohot va o'zgarishlarga "egalik qilish" rolini kuchaytirishga qaratilgan tizim joriy etiladi. Shuningdek, 2025-yilda respublika va hududlar kesimida iqtisodiy o'sish, ishsizlik hamda kambag'ali darajasini pasaytirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar tасdiqlandi.

Farmon bilan mahalliy davlat hokimiyyatiga quydagi moliyaviy imkoniyat va vakolatlar berildi:

- 2025-yil 1-yarvardan aylanmadan olinadigan soliq, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i, davlat aktivlarini ijara berishdan tushumlarni to'liq hajmda hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlарining kamida 50 foiz qismini tuman (shahar)lar budjetlariga o'tkazish;
- mahalliy davlat hokimiyyati organlariga tegishli bo'lgan aktsiyalar (ulushlar)ni sotishdan tushgan mablag'larning 90 foizi Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetiga va Toshkent shahrining shahar budjetiga hamda obyekti joylashgan tuman (shahar) byudjetiga teng ulushlarda taqsimlanadi.

2025-yil 1-martdan hokimliklarga hududi 10 ming metr kvadratdan, baholangan qiymati 5 ming bazaviy hisoblash miqdoridan oshmagan hamda 6 oy davomida sotilmagan mahalliy davlat hokimiyyati organlariga tegishli ko'chmas mulk obyektlarini 2 yil ichida yangi loylhani ishga tushirish

va ish o'rinnari yaratish sharti bilan:

- tadbirkorlarga to'g'ridan-to'g'ri 10 yil muddatiga ijara berish hamda davlat mulki uchun 4 yil davomida uzuksiz ijara to'lovlarini amalga oshirgan va ijara shartnomasi shartlarini bajargan tadbirkorga xususiyashirish yoki baholangan qiymatda to'g'ri dan-to'g'ri sotish;
- xalqaro tan olingan xorijiy til va malaka sertifikatlarini olishga o'qitadigan mahalliy hamda xorijiy mutaxassislar yoki tashkilotlarga dastlabki birinchi yili ijara to'lovi undirmasdan 5 yil muddatiga keyinchalik uning muddatini uzaytirish sharti bilan ijara berish vakolatlari beriladi.

Tuman va shaharlardan hokimliklari quydagi yo'nalishlarda ma'muriy vakolatlar beriladi:

- davlat boshqaruvi organlari va tadbirkorlar o'rтasida "doimiy aloqa" tizimini yaratish maqsadida tuman (shahar)larda Tadbirkorlar jamoatchilik kengashini tuzish;
- 2025-yil 1-yarvardan belgilangan vazirlik va idoralarning tuman (shahar) bo'limlari rahbarlarini mas'ul vazirlik va idoralarning hududiy boshqarmalari bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish, shuningdek, tegishli mas'ullarga rag'batlanirish yoki intizomiy javobgarlikka tortish choralarini ko'rish;
- 2025-yil 1-yarvardan 2026-yil 1-yarvargacha belgilangan ro'yxat bo'yicha tuman (shahar)larda huquqiy eksperiment tariqasida tuman (shahar) hokimiligi faoliyatini "Aholi va tadbirkorlar manfaatlari xizmat qilish" yangicha yondashuvni asosida tashkil etish;

- 2025-yil 1-yarvardan 2026-yil 1-yarvargacha belgilangan ro'yxat bo'yicha tuman (shahar)larda huquqiy eksperiment tariqasida tuman (shahar) hokimiligi faoliyatini "Aholi va tadbirkorlar manfaatlari xizmat qilish" yangicha yondashuvni asosida tashkil etish;

2024-yil SAMARQANDLIK YOSHLAR HAYOTIDA QANDAY IZ QOLDIRD? IZ QOLDIRD?

O'tayotgan 2024-yil «Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili» deb e'lon qilingan edi. Shuning uchun ham yil davomida mamlakatimizda yoshlarni, xususan, ilm olishga, tadbirkorlikka qiziquvchi yigit-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada viloyatimizda ham qator ishlar amalga oshirildi. Viloyat yoshlari ishlar boshqarmasi boshlig'i Sarvar Bobohev bilan suhabatimiz shular xususida bo'ldi.

- O'tayotgan yil samarqandlik yoshlari hayotida qandy iz qoldirdi?

- Keyingi yillarda mamlakat miyosida o'tkaziladigan tanlov va musobaqalarda g'oliblikni qo'lg'a kiritgan yoshlarni orasida samarcandliklarning bo'lishi quronarli hol, albatta. Bunga juda ko'p misollar keltirishimiz mumkin. Jomboy tumanida yashovchi Nargiza Muhammadiyeva bu yilgi «Yosh kitobxon» tanlovni respublika final bosqichida 10-14 yoshlilar orasida birinchilikni qo'lg'a kiritdi. Unga Prezident sovg'asi - «Cobalt» avtomobil berildi. 2023-yilgi mavsumda 15-19 yosh toifasida 1-o'rinni Marhabo Mahkamtosheva egalab, "Spark" sobibasi bo'lgan edi. Nafaqat respublika, balki xalqaro tanlovlarda ham yoshlarni faol. Aynan 2024-yilda Fransiyada o'tkazilgan olimpiyadada champion bo'lgan Diyora Keldiyorova Samarqand farzandi ekanligi bilan ham faxrlanamiz.

- Yil nomidan kelib chiqqan holda yoshlarni, xususan, tadbirkorlikka qiziqqan yigit-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

haqida ham to'xtalib o'tsangiz.

- Yil avvalida xatlon o'tkazildi va 14 ming 418 nafr yoshning alohida ko'makka muhtojligi aniqlandi. Ularga viloyat va tuman tashkilotlarda faoliyat olib borayotgan 735 nafr rahbar birkirtilib, ularning muammolariga yechim izlandi. 335 ming 57 nafr yosh otaliquga olinib, huquq-tartibot organlarining 1513 nafr xodimi tomonidan ko'mak ko'rsatildi. Yoshlar orasida hunarmandlikka, tadbirkorlikka qiziquchilarini aniqlab, ularga biznes rejalar tuzishda, kreditlar ajratilishiha alohida ko'mak ko'rsatildi. Bu ishlar amalga oshirilishi jarayoni bo'yicha maxsus shtab tashkil etilib, ishchi guruh tomonidan monitoring qilib borildi. Har bir shahar va tuman kesimida olib borilayotgan ishlar qoniqarli yoki sustigli viloyat hokimligida o'tkazilgan yig'ishlarda muhokama etlib, sustakashlikka bo'y qo'ygan rahbar xodimlarga nisbatan choralar ko'rildi.

- Davlat dasturida 2024-yil 1-martdan "Har bir mahallada ikki nafar dasturchi" loyihasi joriy etilishi va

## "MAHALLA YETTILIGI" samarali ishlashi uchun...



Viloyat mahallani qo'llab-quvvatlash kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Viloyat rahbari, kengash raisi Adiz Boboyev boshqargan yig'ilishda "mahalla yettiligi" hamda unga mas'ul hududiy boshqarma va tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan ishlar, kelgusi yildagi ustuvor vazifalar muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, o'tayotgan yilda "mahalla yettiligi" tomonidan "Ombor daftari" dagi ishsiz fuqarolarining 85569 nafari bandligi ta'minlanib, 32861 ta oila kambag'allikkadan chiqarildi. "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida mahallalarda aniqlangan 18053 ta ijtimoiy muammo hal etilib, qo'shma xulosalar tuzildi. Shunga qaramay, tizim faoliyatida qator muammo va kamchiliklar ham kuzatilmoqda.

Xususan, yig'ilishda mahallani qo'llab-quvvatlash kengashi faoliyati barcha hududda ta'laqonli tashkil qilinmaganligi, ayrim tumanlarda tashkil etilgan kengashlar tomonidan uyushma va boshqa davlat tashkilotlarning hisobotlari muntazam ravishda eshitilmayotgan aytildi. Oqibatda tizim bu hududlarda samarali ishshamagan. Ayrim tuman va shaharlardagi rahbarlar esa "mahalla yettiligi" tizimidagi xodimining kunlik ishi mahalla raisi

boshchiligidagi mahallada boshlanishi kerakligi ni unutib qo'yan.

Yig'ilishda barcha sektor va "mahalla yettiligi"ga mas'ul tashkilot rahbarlariga shu va boshqa kamchiliklarni bartaraf etish vazifasi qo'yildi. Mahalla faollari aholini qiyinab kelayotgan muammolarni hal etish, mahallalarni ishsizlik, kambag'allik, oilaivy ajrini hamda jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirishga alohida e'tibor qaratishi shartligi ta'kidlandi.

Kengash a'zolarining hisobtrollari tinglanib, kelgusi ustuvor vazifalar muhokama qilindi. Mahallalarda "yettilik" tomonidan amalga oshiriladigan kompleks chora-tadbirlar bo'yicha "Yo'l xarasisi" ishlab chiqilishi belgilandi.

## Bayramda necha kun dam olamiz?

Davlatimiz rahbarining "Yangi yil bayramini nishonlash davrida qo'shimcha ishlanmaydigan kunni belgilash va dam olish kunini ko'chirish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, 2025-yilda besh kunlik ish haftasida ishlaydigan xodimlar uchun dam olish kuni 4- yanvar - shanba kunidan 2-yanvar - payshanba kuniga ko'chirildi. Olti kunlik ish haftasida ishlaydigan xodimlar uchun 2-yanvar - payshanba qo'shimcha dam olish kuni etib belgilandi.

Shunday qilib 28-dekabr, shanba - 6 kun ishlaydiganlar uchun ish kuni, 5 kunliklar uchun dam olish kuni;

29-dekabr, yakshanba - barcha uchun odatiy dam olish kuni;

30-31-dekabr - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 22-dekabrdagi Farmoniga ko'ra dam olish kunlari sifatida belgilangan;

1-yanvar, chorshanba - Yangi yil bayrami.

2025-yil 3-yanvar - barcha uchun ish kuni.



ularga chet tillarini o'rgatish masalasi qo'yilgandi. Bu borada amalga oshirilgan ishlar haqida nimalar deya olasiz?

- Viloyatimizdagi mavjud 1126 mahallada faoliyat olib borayotgan yoshlarni yetakchilari ko'magida axborot texnologiyalari va chet tillarini o'rganishiga qiziqishi yugori 3200 dan ziyod yoshlarning ro'yxati shakllantirildi. Bugungi kunda ular zamonaliviy usullarda, ya'ni "Ustoz Al", "Ibrat farzandlari", "Mutolaa", "Qizlar akademiyasi" va boshqa shu kabi platformalar yordamida hamda biz bilan hamkorlik qilib kelayotgan o'quv markazlari ko'magida o'qitilyapti. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, 2024-yilda yoshlarni kasb-hunarga o'qitish va ularga til o'rgatish markazlari 2 mingha yaqinlashdi. Bu ko'rsatkich bilan viloyatimiz respublikada ikkinchi o'rinda.

- O'tayotgan yilda xalqaro imtihon tizimlarda chet tilini bilish darajasi bo'yicha yuqori ball olgan necha nafar samarcandlik yoshlarning imtihon xarajatlari qoplab berildi?

- Mamlakatimizda bilimli yoshlarni uchun ko'pgina qulay imkoniyatlari yaratilgan. Shularidan biri chet tilini bilish darajasi yuqori bo'lgan yigit-qizlarning xalqaro imtihon xarajatlari agentlik tomonidan qoplab berilishidir. Masalan, 7 baldan yuqori natija bilan IELTS sertifikatini qo'lg'a kiritadi.

## Davlat dasturi - amalda



gan yoshlarning imtihon xarajatlari agentlik tomonidan to'lab berildi. 2021-yilda ana shunday yuqori natijaga erishgan yoshlarni soni 138 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 8 baravarga oshib, 1022 nafarga yetdi. Ularning imtihon xarajatlari uchun agentlik hisobidan 4 milliard so'mdan ziyod mablag' ajratildi.

- Davlat dasturida "Yosh tadbirkor" tanlovi tashkil etilishi kerak edi. Tanlov qanday natija beridi?

- Bu yil Yoshlar ishlar agentligi, "Yoshlar jamg'armasi" va Savdo-sanoat palatasi hamkorligida "Yosh tadbirkor" tanlovi tashkil etildi. Ilk bor o'tkazilgan mazkur tanlovnning shahar uchun agentlik hisobidan 1320 nafr yosh qamrab olindi. Birinchi bosqichda g'olib bo'lgan 109 nafr yosh tadbirkorlar tanlovnning viloyat bosqichida qatnashdi. Yuqori natjalarga erishgan 5 nafr yigit-qiz esa tanlovnning respublika bosqichida ishtiroy etish huquqini qo'lg'a kiritdi. Tanlovnning mamlakat bosqichida g'olib bo'lgan yoshlarni o'zlarini taqdim etgan yozhalarni amalga oshirildi. Bu borada, tanlov tashkilotchilari ularni moddli va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga tayyormiz.

- 2025-yilgi rejalar qanday?

- O'tayotgan yilda erishilgan muvafaqiyatlar bilan bir qatorda xato va kamchiliklarga ham yo'l qo'yilgani bor gap. Kelgusi yilda yanada yuqori natjalarga erishishga, xatoga yo'l qo'ymaslikka harakat qilamiz. Asosiy, yoshlarni zamonaliviy kasblarga o'qitish jarayonini jadallashtiramiz. Chet tillarni o'rgatish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar ko'laminai kengaytramiz. Yoshlarni orasida ortib borayotgan huquqbazarliklarning oldini olish maqsadida ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish choralarini kuchaytiramiz.

Feruza MAMATQULOVA suhbatlashdi.

## Bir jumlada

Samarqand shahrida avtobus haydovchilari Yangi yil bayrami munosabati bilan Qorbobo kiyimlarda ishlab, yo'lovchilarga bayram kayfiyatni ulashadigan bo'ldi.

Kattaqo'rg'on shahri sport maktabi o'quvchisi Elbek Ernazarov Abu Dabi shahrida sportning Pen-cak silat turi bo'yicha o'tkazilgan jahon championatida 1-o'rinni qo'iga kiritdi.

Kattaqo'rg'on tumanidagi 1-IDUMning 11-sinf o'quvchisi Jur'at O'ktamov xalqaro IELTS imtihonidan 8 ball, SAT imtihonidan 1210 balni qo'iga kiritib, dunyoning nufuzli olyi o'quv yurtlaridan birida o'qish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Payariq tumani hokimligi, tashabbuskor tadbirkorlar va sobiq bitiruvchilar ko'magida tumanning 34 ta maktabiga interfaol doskalar topshirildi.

Past Darg'om tumanidagi Mirzato'p mahallasida yashovchi Sabrina Nurullayeva "Kasblar tanlovi" musobaqasi respublika bosqichining "Novvoychilik" yo'nalishida mutlaq g'olibliyini qo'lg'a kiritdi.

Paxtachi tumanida o'tkazilgan mehnat yarmarkasida 8 nafr alimnet to'lovchilarga ishga joylashish uchun yo'lanmalar berildi.

Toyoq olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi tarbiyalanuvchisi Alisher Samanov 90 kilogramm vaznda dzydu bo'yicha O'zbekiston championatida oltin medalini qo'lg'a kiritib, Xitojoyda o'tkaziladigan Osiyo championati hamda Italyada bo'lib o'tadigan jahon championatiga yo'llanmani naqd qildi.

# Qishning har bir kuni SINOVLI

Dekabr oyida sovuq va yog'ingarchilikning ko'p bo'lgani bu yil qish anchayin sovuq kelishidan darak berayotgandek. O'tgan haftada qor yog'ib, qattiq sovuq bo'lganligi sababli viloyatimizning deyarli barcha shahar va tumanlarida elektr energiyasida uzilishlar va tabiiy gaz bosimi pasayib ketgani kuzatildi.

Xo'sh, viloyatdagi mazkur sohalarga mas'ul tashkilotlar bunday vaziyatda qanday i'l tutmoqda?

"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Samarcand hududiy filiali olingan ma'lumotlarga ko'ra, ayni vaqtida viloyatda 142 ta katta nimstansiya ishlab turibdi. Yuqori kuchlanishli havo tarmoqlarida avariya hotatlari sodir bo'lmagan.

- Biroq yurtimizda havo haroratinining keskin sovishi natijasida elektr energiyasiga bo'lgan talab ortib, yuklamalar hosil bo'yapti, - deydi "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Samarcand hududiy filiali bosh muhandisi vazifasini bajaruvchi ilhom Norboyev. - Nati-jada past kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlarida uzilishlar kelib chiqmoqda. Shuningdek, tayyan ustunlarda muzlamlar hosil bo'lishi yuzaga kelgan nosozliklarni bartaraf etishda avariya brigadalarimiza qiyinchilik tug'dirmoqda. Noqular ob-havo sharoitiga qaramay, hududlardagi 0,4 KV elektr uzatish tarmoqlaridagi nuqsonlarni bartaraf etish ishlari olib borilib, hududlarda elektr energiyasi ta'minoti qayta tiklamoqda.

Shu kecha-kunduzda Samarcand shahridagi Siyob, Mehnat, Muliyon, Maroqand mahallalarida elektr ta'minotidagi ortiqcha yuklamalar tufayli tez-tez uzilish bo'yapti. Jumladan, So'fi Roziq mahallasida transformator punktidagi nosozlik oqibatida 30 ga yaqin xonadonda uzilishlar kuzatildi. Sug'diyona, Sartepa dahasining Zargartepa, B.Zokirov mahallalarida o'nlab ko'p qavatli uylar qatori ayrim ijtimoiy soha obyektlari ham vaqtincha elektr energiyasiz qoldi.

Havo haroratinining keskin pasayishi sababli tashbi va suyutirilgan gaz iste'moliga talab oshdi. Ayrim joylarda, jumladan, Samarcand va Kattaqo'rg'on shaharlarda, Jomboy, Bu-



lung'ur, Payariq, Samarcand, Past Darg'om tumanlarida gaz bosimi pasaydi.

- Sovuq kunlarda aholi va ijtimoiy soha obyektlarini tabiy gaz bilan munzazam ta'minlash maqsadida qurilish mahsulotlari ishlab chiqaruvchi, kichik va o'rta biznes hamda xizmat ko'rsatuvchi 91 ta mavsumiy iste'molchi vaqtinchalik tarmoqdan ajratilgan bo'lsa, 1246 ta yuridik iste'molchiga vaqtinchalik cheklow kiritildi, - deydi "Hududiy-Samarcand" gaz ta'minoti korxonasini direktori o'rinososari Salohiddin Mallayev. - Gaz bosimi past bo'lgan Past Darg'om, Payariq, Bulung'ur, Oqdaryo tumanlaridagi mahallalarда yashovchisi aholiga 200 tadan ziyyod maishiy gaz balloni yetkazib berildi.

**Qishning qorli-qirovli kunlari ko'p bo'lishi tabiiy. Bunday paytda kommunal soha tashkilotlarining o'z vazifasini bekamu ko'st bajarishi aholi xonadonlari, ijtimoiy soha muassasalarini va korxona-tashkilotlar issiq bo'lishini, samarali ishlashini ta'minlaydi.**

Dilmurod TO'XTAYEV.

## Kun mavzusi

Ayni vaqtida "Hududiy-Samarcand" gaz ta'minoti korxonasi qarashli 6 ta, autsorsing shartnomasi asosida 11 ta gaz to'ldiruvchi shoxobchalar to'liq ishlab turibdi.

Magistral gaz qurvurlarida bosimning kamayishi sababli viloyatdagi mavjud 144 ta suyutirilgan (metan) gaz to'ldirish kompressor shoxobchalarida ham cheklowlar o'nataligan. Zirabuloq gaz qurvur boshqarmasiga qarashli 38 ta suyutirilgan gaz shoxobchasi belgilangan jadval asosida yoqil'i tarqatilmoqda.

Xo'sh, hozirda metan "zapravka" larga cheklowlar o'nataligach, jamoat transporti qanday qilib yo'nalishlarga chiqadi? Yo'lovchilar qanday qilib o'z manziliga yetib boradi? Chiqindi tashuvchi mashinalar-chi?

- Qishning sovuq kunlarda ham jamoat transporti to'xtab golmaydi, - deydi viloyat transport boshqarmasi boshlig'i Ravshan Tojiyev. - "Hududiy-Samarcand" gaz ta'minoti korxonasi bilan kelishgan holda Samarcand shahrida va ayrim tumanlarda jamoat transporti uchun maxsus yoqil'i quyish shoxobchalarini faoliyat ko'rsatmoqda. Kuniga 200 tadan ziyyod avtobus va elektrobus yo'nalishlariha chiqmoqda.

Belgilangan reja asosida Paxtachi, Narpay, Kattaqo'rg'on, Oqdaryo, Ishtixon, Payariq tumanlarida bittadan gaz shoxobchalarini har kuni soat 6:00-15:00 gacha faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, Samarcand shahrida jamoat transporti, chiqindi tashuvchi hamda yirik korxona-tashkilotlarning avtomashinalari uchun 2 ta gaz shoxobchasi ishlamoqda. Urgut, Samarcand va Toyloq tumanlari xizmat mashinalari uchun bitta gaz quyish shoxobchasi faoliyat ko'rsatib turibdi.

- Yoqil'i berilмагanligi sababli o'tgan haftada ko'p miqdorda chiqindi to'planib qolgandi, - deydi "Marocqandobod" DUK boshlig'i Rasul To'qinov. - Viloyat hokimligi yordamida yoqil'i masalasi hal etilgach, 54 ta maxsus texnika yordamida Samarcand shahridan kuniga 600 tonnadan ziyyod maishiy chiqindini olib chiqyapmiz. Bu kommunal va aholiga xizmat ko'rsatish sohalari vakillaridan alohida mas'uliyat talab qiladi.

- Yoqil'i berilмагanligi sababli o'tgan haftada ko'p miqdorda chiqindi to'planib qolgandi, - deydi "Marocqandobod" DUK boshlig'i Rasul To'qinov. - Viloyat hokimligi yordamida yoqil'i masalasi hal etilgach, 54 ta maxsus texnika yordamida Samarcand shahridan kuniga 600 tonnadan ziyyod maishiy chiqindini olib chiqyapmiz. Bu komunal va aholiga xizmat ko'rsatish sohalari vakillaridan alohida mas'uliyat talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limgan fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 11-dekabrda "2024/2025-o'quv yili uchun Respublika oliy ta'limgan muassasalarini bakalavriat bosqichi talabalariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalarini tayinlash to'g'risida"gi buyrug'iiga asosan stipendantlar e'lon qilindi.



# "IKKI MARTA DAVLAT STIPENDIANTI BO'LDIM"

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti iqtisodiyot va boshqaruva fakulteti iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) ta'llim yo'nalishi 4-bosqich talabasi Damirjon Alimov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi sohibi bo'idi.

2024-yilda 19 ming 115 na-far yigit-qiz "Yoshlar daftari"ga kiritilib, o'tgan 10 oy davomida ularning 16 ming 842 nafriga yordam ko'rsatildi va daftardan chiqarildi. Buning uchun "Yoshlar jamg'armasi" dan 32 milliard 185 million so'm mablag' sarflandi.

O'tgan yili Islom Karimov nomidagi davlat stipendianti bo'lgandim, - deydi Damirjon Alimov. - Yangi o'quv yilida yana omad kulib boqqi. Hatto o'zim bunday yutuqni qo'iga kiritishni o'y-lamagandim. Prezident stipendiyasini qo'iga kiritish uchun avvalo, talaba 4-bosqichda o'qishi, 1-bosqichdah baracha fanlardan "5" baho olgan bo'lishi lozim. Tanlov ikki bosqichda, ya'ni institut va respublika bosqichi bo'lib o'tadi. Institut bosqichida talabgorlardan O'zbekiston tarixi, axborot texnologiyalari va chet tilidan test savollari beriladi. Har bir davlat olyi ta'llim muassasasidan yuqori ball to'plagan 3 nafragacha bo'lgan talaba respublika bosqichida ishtiroy etadi. Tanlovning respublika

bosqichida test sinovlari Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan olinadi. Test sinovida yuqoridaq fanlardan 100 ta savol beriladi.

Bundan tashqari, talabaning kamida beshta ilmiy maqolasi ilmiy nashrлarda chop etilgan bo'lishi, chet tilini bilish sertifikati, ko'rik-tanlovlarda qat-nashganligi ham baholash komissiyasi tomonidan e'tiborga olinadi. Ushbu talablarga munosib javob berganim uchun bu yil ham davlat stipendianti bo'lishiga erishdim.

Ayni kunda ustozim Shukrullo Muratov bilan chorvachilikda iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo'yicha startap loyiha boshlab qo'yanman. Kelajakda mazruk sohasida amalgacha oshiradigan rejalarim bisoyir. Shuningdek, mazruk institutning iqtisodiyat va boshqaruva fakulteti turizm (agroturizm) ta'llim yo'nalishi 4-bosqich talabasi Sardor Usmonov Islam Karimov nomli davlat stipendiyasi sohibi bo'ldi.

Xurshida ERNAZAROVA.

Xulosa qiling

chaqirishi mumkin, lekin bu mudhish holat keyingisiga undamasligiga kim kafolat beradi?

- Voqeanning tarqalishidan ham ko'ra, unga munosabat hayotida muammosi bor, e'tibor va kimningdir qo'iloviga muhitoj bo'lib turgan xotin-qizlarga salbiy ta'sir ko'satadi, - deydi tajribali psixolog, Samarcand davlat universiteti o'qituvchisi Abira Bahromova. - O'tgan yilgi voqeani esga olaylik. Tushkun ahvolda qolgan ayol ikki farzandi bilan o'zini suvg'a cho'ktirishga urindi. Xayriyatki, ularning hayoti asrab qolindi. Butun jamoatchilikning e'tibori ularga qaratildi. Tegishli tashkilotlar mutasaddibili bu ayol bizning doimiy e'tiborimida bo'ldi, deydi o'ylaysiz. Yomon tomoni, xuddi shunga o'xshash, o'zini farzandi bilan suvg'a tashlamoqchi bo'lgan bir necha ayollar paydo bo'ldi.

Biz istaymizmi, yo'qmi, bu hodisalar inson ruhyatiga salbiy ta'sir ko'satadi va ayniqsa, hayotida notinchlik bo'lgan insonlar bu holatlarni kelgusida bir yo'l sifatida ong ostida saqlab turishi mumkin. Garchi buni o'zi tan olmasa-da, bir kun bu "xitot" yarq etib namoyon bo'lgan holda uni mash'um xat-ti-harakatga undashi ehtimoli katta.

Shuning uchun ham bu kabi masalalarini yoritishda ommaviy axborot vositalari xodimlari ehtiyoj bo'lishlari, voqeanni faqat fakt sifatida berib, qolgan tafsilotlarni faqat huquq-tartibot idoralari xulosalaridan keyin om-maga oshkor etishlari lozim. Xorijda bu kabi voqealar yoritib boriladi, lekin bizdagiday butun tafsilotlari batatsil aytilmaydi. Qolaversa, xorij auditoriyasi bu voqe-a-hodisalarini yuqori emotsiya bilan qabul qilmaydi, aholining voqe-a-hodisalariga ergashuvchanlik xarakteri ham yo'q. Afsuski, bizda bu masala muammo.

## HAYOTINGIZNI O'ZINGIZ BOSHQARISHGA ORGANING

Umuman olganda, bugun o'z joniga qasd qilish holatlari nafragha xotin-qizlar, balki kuchli jins vakillari orasida deyarli tengma-teng miqdorda kuzatilmoqda. Ya'ni, ijtimoiy tarmoqlarda bu voqealar miridan siriga oshkor etib bo'lindi, aksincha, biz voqeanni yanada aniqlashtirib, xolis bir tarzda yorityapmiz, deydi kelirishadi. Afsuski, bu vajlarning birortasi inson hayoti, uning ruhiyatiga salbiy ta'sirini oqlamaydi.

E'tibor beradigan bo'lsak, yil boshidan oq shu kabi voqealarning bir nechta qizg'in muhokama qilindi, holatning barcha tafsilotlari berib borildi. To'g'ri, bu qaysidir ma'noda insonlarni ogohlilikka

# Sakkizinch qavatdan QUORQMAN.



Joriy yil boshida viloyatimizda kambag'al oilalar soni 98420 ta (a'zolari 441203 nafr), kambag'allik darajasi esa 10,5 foizni tashkil etgan.

Viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi axborotiga ko'ra, kambag'allikni qisqartirish yo'nalishida olib borilgan chora-tadbirlar natijasida 1 oktabr holatiga kambag'al oilalar soni 92438 taga kamayib, kambag'allik darajasi 9,7 foizga tushgan.

Yil yakuni bilan kambag'al oilalar soni 75530 ta (a'zolari 339200 nafr) va kambag'allik darajasi 7,9 foizga tushishi kutilmoqda.

2025-yilda bu ko'rsatkichni 5,8 foizga tushirish rejalashtirilgan.

Bu kabi xabarlar marhumaning oilasiga qanchalik salbiy ta'sir qilayotgani bir masala. Ammo yana bir tomoni uning yoshlarga salbiy ta'siri.

Aslida bu ta'sir haqida bir necha o'n yillardan beri aytildi. "Verter effekti" (Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari" asaridan keyin ushu mamlakatda o'z joniga qasd qilish holatlari haqidagi xabar va lavhalar yoshlarning, ayniqsa, tasghi ta'sirlarga moyil bo'lganlarining ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Bu kabi xabarlarini berishda ommaviy axborot vositalari al-

batta, quydagi qaraligani qetgani uchun shu nom qolgan) deb nomlangan bu ta'sir bir necha yillardan beri taddiqotchilar tomonidan o'rganiladi. Va ularning aksariyati ommaviy axborot vositalarida beriladigan o'z joniga qasd qilish holatlari haqidagi xabar va lavhalar yoshlarning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Bu kabi xabarlarini berishda ommaviy axborot vositalari al-

batta, quydagi qaraligani qetgani uchun shu nom qolgan) deb nomlangan bu ta'sir bir necha yillardan beri taddiqotchilar tomonidan o'rganiladi. Va ularning aksariyati ommaviy axborot vositalarida beriladigan o'z joniga qasd qilish holatlari haqidagi xabar va lavhalar yoshlarning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Bu kabi xabarlarini berishda ommaviy axborot vositalari al-

batta, quydagi qaraligani qetgani uchun shu nom qolgan) deb nomlangan bu ta'sir bir necha yillardan beri taddiqotchilar tomonidan o'rganiladi. Va ularning aksariyati ommaviy axborot vositalarida beriladigan o'z joniga qasd qilish holatlari haqidagi xabar va lavhalar yoshlarning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Bu kabi xabarlarini berishda ommaviy axborot vositalari al-

batta, quydagi qaraligani qetgani uchun shu nom qolgan) deb nomlangan bu ta'sir bir necha yillardan beri taddiqotchilar tomonidan o'rganiladi. Va ularning aksariyati ommaviy axborot vositalarida beriladigan o'z joniga qasd qilish holatlari haqidagi xabar va lavhalar yoshlarning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Bu kabi xabarlarini berishda ommaviy axborot vositalari al-

batta, quydagi qaraligani qetgani uchun shu nom qolgan) deb nomlangan bu ta'sir bir necha yillardan beri taddiqotchilar tomonidan o'rganiladi. Va ularning aksariyati ommaviy axborot vositalarida beriladigan o'z joniga qasd qilish holatlari haqidagi xabar va lavhalar yoshlarning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Bu kabi xabarlarini berishda ommaviy axborot vositalari al-



batta, mutaxassis bilan maslahatlashilgan holda tayyorlanishi lozim.

Shuningdek, o'z joniga qasd qilishga undagan usullar, motivlari va sabablarining mavzuli illyustrasiyasidan foydalananishni cheklash kerak. Ommaviy axborot vositalarida keraksiz tafsilotlari, faktlar, o'z joniga qasd qilish sabablarini va o'z joniga qasd qilishga undagan qiziqsal qaraligani qetgani uchun shu nom qolgan) deb nomlangan bu ta'sir bir necha yillardan beri taddiqotchilar tomonidan o'rganiladi. Va ularning aksariyati ommaviy axborot vositalarida beriladigan o'z joniga qasd qilish holatlari haqidagi xabar va lavhalar yoshlarning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Bu kabi xabarlarini berishda ommaviy axborot vositalari al-

batta, quydagi qaraligani qetgani uchun shu nom qolgan) deb nomlangan bu ta'sir bir necha yillardan beri taddiqotchilar tomonidan o'rganiladi. Va ularning aksariyati ommaviy axborot vositalarida beriladigan o'z joniga qasd qilish holatlari haqidagi xabar va lavhalar yoshlarning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Bu kabi xabarlarini berishda ommaviy axborot vositalari al-</p

# OGOH BO'LING, MAGISTRAL GAZ QUVURLARI!

*Magistral gaz quvurlarining muhofaza zonasida xavfsizlik choralarini ko'rish g'oyatda muhim. Viloyatimizning Narpay, Kattaqo'rg'on, Ishtixon, Oqdaryo, Nurobob, Payariq tumanlari hududi bo'yib aholi punktlari va sanoat korxonalarini tabiiy gaz bilan ta'minlovchi, yuqori bosimga ega magistral gaz quvurlari yotqizilganligini hisobga olsak, masala kundek ravshan. Shu sababli hamyurtlarimizni ogohlilikka chorlaymiz.*

Ekspluatatsiyaning normal sharoitini ta'minlash va quvurlarning shikastlanishiha (ularning har qanday o'tkazilishidan qat'i nazar) yo'l qo'ymaslik uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 9-dekabrdagi "Magistral gaz quvurlari qoidalarini tasdiqlash" to'grisidagi 651-tonli qarori talablarini hamda O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy communal xo'jaligi vazirligini tomonidan tasdiqlangan "ShMQ-02.05.06/22"



**Quvurlarning muhofaza hududida quvurlardan me'yorida foydalanishga xalaqit beruvchi yoki ularga shikast yetkauzvchi har qanday turdag'i ishlarni taqiqlanadi. Xususian:**

- har qanday qurilish ishlarni olib borish, inshootlar tiklash;
- har xil turdag'i daraxt va butalarni ekish, yem-xashak, ozuqa, o'g'it va materiallarni to'plash, pichan g'amlash, ot bog'laydigan qoziqlarni joylashtirish, chorva mollarini saqlash, balq yetishtirish uchun uchastkalar ajarishat, baliq hamda boshqa suvda yashovchi va suzuvchi hayvonlar va parrandalarni parvarishlash, jonivorlar uchun suv ichadigan hovuzlar qurish, muzni yorish va tayyorlash ishlarni amalga oshirish;
- quvur trassasi ustidan o'tish va kesib o'tish inshootlarini qurish, traktor va boshqa mexanizmlar uchun saqlash joylarini barpo etish, jamoat bog'lari va polizlarini joylashtirish;
- turli xil qurilish-montaj, portlatish va tog' ishlarni amalga oshirish, tuproq (grunt) olishni rejalashtirish;
- melioratsiya ishlarni amalga oshirish, sug'orish, quritish tarmoqlarini qurish;
- nazorat-o'chov quduqlari, nazorat punktlari, signal beruvchi, ogohlantiruvchi belgilarni buzish, joylarini o'zgartirish;
- kabel aloqasi xizmat ko'sratmaydigan



tovush kuchaytiruvchi punktlar qopqoqlarini, lyuklarni, katod himoyasi stansiyasi, tarmoq va nazorat qiluvchi quduqlari hamda boshqa tarmoq qurilmalarini, zulf va jo'mraklarni ochish, aloqa vositalari, quvur energiya ta'minoti va telemexanikasini yoqish, o'chirish;

- belgilangan hududda turli xil chiqindi to'plamlarini yig'ish, yerga ishqorlar, tuzar, kislova eritmalarini to'kish;
- quvurlarini buzilishlardan, yon-atrof va yaqin joylashgan hududni, transportirovka qilinadigan mahsulotni avariya natijasida to'kilishdan saqlovchi, yer osti suvini o'tka-zuvchi inshootlarni, qirg'oqlarni mustahkam tutuvchi qurilmalarini buzish;
- olov yoqish yoki shunga o'xshash ochiq-yopiq olov manbaralarini uysutishir;
- himoya hududlarida sun'iy havzalar va sholi ekinlarini ekish man etiladi.

**Magistral gaz quvurlari himoya qoidalarinin buzilishida aybor mansabsiz shaxslar va fuqarolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra javobgarlikka tortiladi.**

**Muhofaza hududi:**

- quvur trassasi bo'yib xavfsizlik yer uchustkasi ko'rinishida, quvur o'qining har tomonidan 50 metrgacha masofada shartli chiziqlar bilan chegaralangan bo'лади;
- qishloq xo'jaligiga taalluqli yerlardan himoya maydoni quvur o'qining har tomonidan 25 metr masofada o'tadigan shartli chiziqlar bilan chegaralanganadi;
- ko'p tarmoqlar trassa bo'yib chekka quvur o'qining har tomonidan 50 metr masofada o'tgan, shartli chiziqlar bilan chegaralangan yer maydoni ko'rinishidadir.

Gazdan kondensatni ajarish va saqlash uchun sig'imlarni atrofida neft, kondensat va siqilgan uglevodorodlarni avariya holatida chiqarish uchun yer omborida ko'rsatilgan obyektlar maydoni chegarasida har tomoniga 50 metrda tutashgan chiziq bilan chegaralangan uchastka ko'rinishida bo'лади.



**Shuning bilan birgalikda, aholi e'tibori ni qo'yidagilarga qaratmoqchimiz:**

Davlatimizda olib borilayotgan insonparvarlik siyosita ko'ra, aholi tomonidan tegishli mahalliy hokimiyatlardan ruxsatisiz qilib, hozirda aholi istiqomat qilib kelayotgan ayrim uy-joylar ham tegishli hujjatlar orqali egaliga ga mulk sifatida rasmiylashtirilib berilmog'da. Lekin magistral gaz quvurlarining xavfli hududida, boshqacha aytganda, "Qizil hudud" ichida qurilgan noqonunim imoratlar uchun bu yengilliklar tatbiq etilmaydi va bunday imoratlar tushtiqlashkerak bo'ladi.

Aziz hamyurtlarimizning yer uchastkalarini yoki dehqonchilik qilayotgan yer maydonlari magistral gaz quvurlari yaqinida joylashgan bo'ласа, biror turdag'i qurilish ishlarni boshlashdan oldin ushuh gaz quvurlari xizmat ko'rsatuvchi boshqarmaga murojaat qilib, ish ko'rish tavsiya etiladi. Bu bilan fuqarolarimiz o'zboshimchalik bilan qurilgan noqonunim imoratni buzilishi bilan bog'liq ortiqcha asabiyatli va keraksiz moddiy chiqimlardan xoli bo'lishadi.

**Boshqarmamiz manzili:** Narpay tumanı Oqtosh shahri, Muqimiy mahallasi.

**Telefonlar:** +99866-432-41-91,

+99893-172-22-47.

**Qahramon FAYZULLAYEV,**

"Zirabuloq magistral gaz quvurlari" boshqarmasi boshlig'i.

**Iskandar SHUKUROV,**

Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi Samarqand hududiy boshqarmasi bosh mutaxassis.

## DA'VOLAR BO'LSA...

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Shernazarova Xayitulgulga (2023-yil 14-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

\* \* \*

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasida marhum Xudayberdiyev Baxodir Sayfullayevichga (2024-yil 17-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Narpay tumani Oqtosh shahri, Imom Buxoriy ko'chasi.

\* \* \*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Inoyatov Alimboyga (2021-yil 28-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

\* \* \*

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Azimov Daniyarga (2023-yil 8-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

\* \* \*

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Mardonov Navruz Jumabekovichga (2023-yil 16-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

\* \* \*

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Xamrayeva Sharofatga (2022-yil 28-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Ortiboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

\* \* \*

## BEKOR QILINADI

Samarqand tumanidagi Abdullayeva Mohinur A'zamovna yakka taribdagisi tadbirkorining (JSHSHIR: 41109986110017) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

\* \* \*

Urgut tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi 23-umumiy o'rta ta'lim maktabining gerblini muhri yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

\* \* \*

## "SAMARQAND KAMALAK INVEST TEKSTIL"

### MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI JAMOASI

barcha yurtdoshlarimizni  
yaqinlashib kelayotgan yangi  
**2025-yil**  
bilan qutlaydi!



Mahsulotlar sertifikatlangan.

# "SAMARQAND FESTIVALLAR DIREKSIYASI" OCHILADI

Bu sohadagi muammolarga yechim bo'la oladimi?

VILOYATDA TASHKIL ETILAYOTGAN MADANIY TADBIRLAR VA KONSERT DASTURLARI KO'PAYDI, LEKIN ULARNING SAVIYASI-CHI? TIZIMDA KADRLAR BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR BOR, MAVJUD 80 TA MADANIYAT MARKAZIDAN 62 TASI O'Z BINOSIGA EGA BO'LSA, 18 TASIDA BINO YO'Q.



Ma'lumotlarga ko'ra, viloyatda 138 ta madaniyat va san'at muassasasi bo'lib, ularda 3900 nafardan ziyyod boshqaru, ijodiy va texnik xodim ishlendi. Bu yil viloyatda tashkil qilingan 2500 dan ziyyod madaniy tadbir va konsert dasturlari qarib 692 ming aholi qamrab olingan, 4 ta davlat teatri tomonidan namoyish etilgan festivallarga 395 ming nafar tomoshabin jaib qilingan.

- 2024-yil viloyatda asosan, yangi loyihalor doirasida xalqaro tadbirlar ko'p o'tkazildi, - deydi viloyat madaniyati boshqarmasini boshlig'i Orif Hayitov. - Jumladan, "Madaniyat karvonni", xalq havaskorlik jamoalari ishtirokida "Xalq ijodiyoti karvonni", "Madaniyat kunlari" loyihalor asosida viloyatning barcha hududlarida taniqli san'atkor va aktyorlar tomonidan ko'nglochar tadbirlar, konsertlar tashkil etildi. Samarqand shahri "MDHning madaniyat poytaxti" maqomida bo'lgani uchun yil davomida MDH mamlakatlari xalqlari o'tasidagi o'stik va yaqin hamkorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi.

Madaniyat va san'at namoyandalarining qadimiy kentga sayohatlari, ular ishtirokida ijodiy kechalar uyuştilirdi. Shu bilan birga, uzoq yillik tanaffusdan keyin an'anaviy "Sharq taronatari" XIII xalqaro musiqa festivali o'tkazildi.

## NAMUNALI MADANIYAT MARKAZLARI YIL OXIRIGACHA FOYDALANISHGA TOPSHIRILADI?

Davlat rahbari topshirig'iga ko'ra, bu yil viloyatdagi har bir tuman va shaharda bittadan namunalni madaniyat markazini qurish va ta'mirlash, shuningdek, viloyatda tasdiqlangan reja asosida 16 ta madaniyat markazi ta'mirlanishi kerak edi.

- 2023-yil 22-dekabr kuni Prezidentimiz rahbarligida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida joriy yilning 1-noyabriga qadar har bir tuman va shahardagi madaniyat markazlari faoliyatini samarali tashkil qilish maqsadida konsert tomosha zali, kutubxona, kinozal va to'garak xonalari bo'lgan

bittadan namunalni madaniyat markazi faoliyatini yo'liga qo'yish topshirig'i berilgan edi, - deydi Orif Hayitov. - Mazkur topshirig'i qirosini ta'minlash maqsadida 16 ta madaniyat markazini ta'mirlash belgilangan bo'lib, bugungi kuniga qadar 9 ta Samarqand shahar (5-), Kattaqo'rg'on shahar (8-), Bulung'ur (12-), Oqdaryo (43-), Payariq (48-), Past Darg'om (55-), Paxtachi (62-), Samarqand (67-) va Urgut (76-) tumanlaridagi madaniyat markazlari qurilish va tamirlash ishlari olib bo'ilib, foydalanshiga topshirildi.

Ayni paytda Jomboy (16-), Ishtixon (24-), Kattaqo'rg'on (26-), Qo'shrabot (31-), Narpay (37-), Toyloq (72-) tumanlarida madaniyat markazlarini qurish va ta'mirlash ishlari belgilangan vaqtida topshirilmagan bo'lsa, Nurobod tumani hokimligi tomonidan madaniyat markazi uchun endi mablag' ajratilib, hozirda loyiha taklif va smeta hujjatlarini tayorlash ishlari olib borilmoqda.

Viloyatda tasdiqlangan rejaga ko'ra, 5 ta (Bulung'ur tumanidagi 11-, Ishtixon tumanidagi 21-, Past Darg'om tumanidagi 56- va 58-, Toyloq tumanidagi 74-) madaniyat markazlarning binolari davlat-xususiy sherirkilik asosida qayta tashkil etishga berilgan bo'lib, Past Darg'om va Toyloq tumanlaridagi madaniyat markazlarning binolari qayta ta'mirlanib, foydalanshiga topshirildi. Urgut tumanidagi 75 va 77-madaniyat markazlarning binolari homiyalar yordamida ta'mirlangan bo'lsa, Bulung'ur tumanidagi 11-, Ishtixon tumanidagi 21-madaniyat markazlarda ta'mirlash ishlari hamda Qo'shrabot tumanidagi 31-madaniyat markazida qurilish va ta'mirlash ishlari davom etmoqda.

Madaniyat tizimidagi asosiy muammolardan biri – bu kadrlar masalasi. Chunki sohada xodimlar yetishmaydi, buning ustiga, kadrlarning qariyb 50 foizi o'ta maxsus ma'lumoti. Xodimlarning aksariyati maoshi kamliq va norasim tadbirlarga chaqirilib, haq to'lanmayotganidan noliydi. Boshqarma boshlig'i Orif Hayitovning ta'kidlashicha, mazkur muammolarni hal etish maqsadida kelgusida viloyatda "Samarqand festivallar direksiysi" ni tashkil etish rejalashtirilgan. Bunda o'tkaziladigan barcha madaniy-ma'rifiy tadbirlar uchun haq to'lanadi. Shuningdek, viloyatda madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish maqsadida "Avtoklub" xizmatini yo'iga qo'yish, madaniyat tizimi tashkilotlarining moddiy-teknik bazasini yaxshilash, avariya va ta'mirma muhtoj madaniyat markazlarini davlat-xususiy sherirkilik asosida qurish va ta'mirlash ko'zda tutilgan.

F.RO'ZIBOYEV.



Samarqandlik sportchilar O'zbekistonda yilning eng yaxshilari qatorida

Poytaxtimida «Milliy sport mukofot-2024» taqdirlash marosimi bo'lib otdi. Unda dzyudo bo'yicha yozgi olimpiya o'yinlari championi, pastdargomlik Diyora Keldiyorova yilning eng yaxshi ayol sportchisi sifatida e'tirof etildi. Bulung'urlik bokschi Sitora Turdibekova esa muxlislar mehrini qozongan sportchi bo'ldi.

«Dinamo» jamoasi futbolchisi Anvarjon Hojimirzayev Superliga doirasida joriy yilgi mavsumning haqiqiy kashfiyoti bo'ldi. U shusu mavsum 10 ta top kiritib, Superligada eng ko'p gol urgan o'zbekistonlik futbolchiga aylandi va yil kashfiyoti sovrinini qabul qilib oldi.

O'zbekiston futzal milliy jamoasi yetakchisi, urgutlik Husniddin Nishonov yilning eng yaxshi futzalchisi deb topildi. U o'tgan yilda ham ushuvo sovrinini qo'lg'a kiritgan edi.

## BOKSCHI QIZLAR

O'zbekiston kubogi sohibi

Urganch shahrida boks bo'yicha o'smir (U-14-15) va yosh qizlar (U-16-17) o'tasida O'zbekiston kubogi bahslari bo'lib o'tdi.

Bokschi qizlar o'tasida bir hafta davom etgan shiddatiy janglarda Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlardan kelganlar 15 ta vazn toifasida g'oliblik uchun bahs olib bordi.

Musobaqada umumjamoa hisobida Samarqand viloyati bokschi qizlar jamoasi 6 ta oltin, 1 ta kumush va 7 ta bronza medallarini qo'iga kiritgan holda mamlakat kubogi sohibi bo'ldi.

### O'ZBEKISTON CHAMPIONATIDA TO'RRTA MEDAL QO'LG'A KIRITLDI

Kurash bo'yicha yoshlar (U-17 o'g'il va qiz bolar) o'tasida O'zbekiston championati bo'lib o'tdi. Sirdaryoda o'tkazilgan musobaqada Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlari va Toshkent shahridan 400 nafran dan ortiq kurashchilar mamlakat championligi uchun bellashdi.

Vakillarimiz musobaqada 2 ta oltin va 2 ta bronza medallarini qo'iga kiritidi:

1-o'rinni Chingiz Muhammadiyev(50 kilogramm), Haydar O'rroqboev (55 kilogramm), 3-o'rinni Ramazon Toshpo'latov (55 kilogramm), Muhammaddin Qo'chqorov (46 kilogramm) qo'iga kiritdi.

Mazkur championat 2025-yil Bahraynda o'tkaziladigan yoshlar o'tasidagi Osiyo



o'yinlariga munosib nomzodlarni saralab olish imkonini berdi.

### UNIVERSIADA-2024 G'OLIBLARI ANIQLANDI

Samarqand shahrida olyi ta'lim muassasalari talabalarining "Universiada-2024" sport musobaqalarining shaxmat va shashka turlari bo'yicha final bosqichi yakunlandi.

Natijalarga ko'ra, shashka bo'yicha qizlar o'tasida sirdaryolik Malika Nodirqulova, o'g'il bolar o'tasidagi bahsda Toshkent shahridan Ozodbek O'rmonaliyev birinchini o'rinni egalladi.

Shaxmat bo'yicha qizlar va yigitlar bahsida toshkentlik Maftuna Bobomurodova hamda Davron Sharipovga teng keladigani topilmadi.

### MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

### Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 403 nusxada chop etildi. Buyurtma 680. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta "Zarafshon" tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqt: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: A.SHERXOLOV.

Navbatchi: O.XUDOYBERDIYEV.

Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda



Past Darg'omda yana bir

## SPORT MAK TABI TASHKIL ETILADI MI?

Tumanda 400 dan ziyod sport inshooti bo'lib, ikkita sport maktabi va "Dinamo" professional futbol maktabi faoliyat yuritmoqda. Ularda sportning 26 turidan 2958 nafar, umumta'lim maktablari da 9 sport turi bo'yicha 9800 nafar o'g'il-qiz 120 nafardan ziyod trener-o'qituvchi qo'l ostida mashg'ulotlarda ishtirok etmoqda. Olti Qahramon mahallasidagi 2-sport maktabi direktori Far-rux Xayriddinovning ta'kidlashicha, joriy yilning o'tgan davrida tumanda 200 dan ziyod ommaviy sport tadbirleri o'tkazilib, 63 ming 607 nafar aholi jaib qilingan. Shuningdek, "Besh tashabbus olimpiadasi" ommaviy sport musobaqlarida 60 ming naflarga yaqin yoshlarning ishtiroki ta'minlangan. Tuman sportchilarining 34 nafari milliy terma jamaoing asosiy, 23 nafari zaxira tarkibiga qabul qilingan bo'lib, musobaqlarda yurtimiz sharafini himoya qilmoqda. Jumladan, shu yilning o'tgan davrida sportchilar O'zbekiston championatida 167 ta, Osiyo, jahon championati va xalqaro musobaqlarida 28 ta medalni qo'iga kiritgan.

### QABUL JARAYONLARI O'ZGARGAN

- Joriy o'quv yilidan o'qvchilarini sport maktabalariga qabul qilish, hujjat topshirish, sportchilarni saralash jarayonlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi, - deydi F.Xayriddinov. - Oldin 7 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan o'qvchilarining ma'lumoti va ularning ota-onasi tomonidan arizalar sport maktabi direktoriga taqdim etilib, maktabga qabul qilinardi. Sport vazirligi tomonidan ishga tushirilgan yagona elektron platformada jarayon soddalashirilib, hujjatlar onlayn va davlat xizmatlari markazi orqali qabul qilinadigan bo'ldi. Shu asosda o'qvchilarining sport maktabaliga qabul qilish yoshi ham 5 yoshdan 30 yoshgacha etib belgilangandi. Joriy yildan sport sinovlari va me'yordanidan o'tgan ishtirokchilar bilan birga, "Besh tashabbus olimpiadasi" musobaqlarida yuqori natijalarga erishgan yoshlar ham sport turlari bo'yicha to'g'araklarga qamrab olindi.

Tumandagi 1-sport maktabiga qarashli uchta sport bazasi bor. Bular - "Olimp" suv havzasi, "TIP-1" va "TIP-2" sport majmualar. Suv havzasi da 2014-yilgacha sunving o'zi bo'lmagan, 2021-yilgacha gaz bilan isitilgan suzish havzasi 340 million so'mdan ziyod qarzdorligi sababli gaz tarmog'idan uzib qo'yilgan. Sport maktabi direktori Sohib Mamaso'liyevning ma'lum qilishicha, inshootdagiligi muammolar o'sha yili bartaraf etilib, suzish basagiza suv chiqarilgan va isitish tizimi ta'mirlangan. Shuningdek, Olmazor mahallasidagi sport bazasida ham ta'mirlash ishlari olib borilgan. Biroq ushu sport majmuasi gaz bilan isitishga mo'ljallangan, lekin gaz yo'q.

### SPORT MAK TABI TASHKIL ETISH UCHUN LOYIHA, JOY BOR, FAQAT...

- Qariyb 30 yildan buyon 1-sport maktabida dzyudo bo'yicha murabbiylik qilaman, - deydi Xurshida Xoliqova. - Faoliyatim davomida O'zbekiston, Osiyo, jahon va olimpiada championlari tayyorladim. Ayniqsa, birinchi shogirdim Diyora Keldiyorova olimpiya o'yinlari championi bo'lganidan keyin dzyudo bilan shug'ullanuvchi yoshlar ko'paydi. Biz basketbol uchun mo'ljallangan bitta zalda tayekvondo, basketbol, dzyudo va yengil atletika mashg'ulotlarini olib boramiz. Aslida bu sport turlarining har biri uchun alohida sport bazasi bo'lishi kerak. Mashg'ulotlar vaqtida juda qiyalamaniz, joy torlik qiladi, ovozimiz eshitilmaydi, zal va kiyinish xonalarini sovuq. Bazaning isitish tizimi yangilanib, gaz bilan isitishga moslashgan, lekin gazning o'zi yo'q. Ko'mir bilan isitishga moslab ta'mirlash kerak. Muassasa shug'ullanuvchilarining aksariyati kurasch va dzyudo mashg'ulotlarida qatnashadi. Shu bois qo'shimcha dzyudo zali yoki sport maktabi tashkil etilsa, Diyoraga o'xshagan o'nlab championlari tayyorlash mumkin.

Tizimdagagi majvud muammolarga yechim topish va bazamizga har yili 500 nafradan ziyod yoshlar dzyudo bilan shug'ullanish uchun kelishini hisobga olib, "TIP-2" sport majmuasini rekonstruksiya qilish orqali Diyora Keldiyorova nomidagi sport maktabi tashkil etish loyihasini ishlab chiqdik. Bu bo'yicha Diyoraning o'zi ham takliflarini berdi. Loyer uchun hokimligi va viloyat sport boshqarmasiga taqdim etilgan. O'yalmizki, mas'ular tumanimiz yoshlari kelajagiga befarq bo'lmaydi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.